

MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Zarina Abdullaxayeva, Diloromxon Akbarxodjayeva, Sanjar Allamurodov
TDIU SMMT-77 guruh talabalari*

Bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani, milliy va hududiy iqtisodiyotni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Mintaqalar iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarni o'rghanish, hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, investitsiya va boshqa sohalarda davlat darajasida qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlar moliyaviy resurslari va iqtisodiy salohiyatini, ularning moliyaviy barqarorlik darajasi mamlakatimizda biznes yuritishni maqsad qilgan xorijiy tadbirkorlarda qiziqish uyg'otishi mumkin. Chunki biznes uchun nafaqat mamlakatning u yoki bu hududining infratuzilmasi, ijtimoiy, geografik xususiyati baliki moliyaviy resurslari ko'lami va iqtisodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish, 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amaliyatga tadbiq qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari «qoniqarsiz» bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilandi¹.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va natijaviyligi ularni o'z vaqtida va zarur miqdorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlanishiga bevosita bog'liqdir. Afsuski, mahalliy boshqaruв organlari zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda o'z mablag'larining yetishmaslik muammosi hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan «...hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag'ları yetarli emas»². Shu munosabat bilan «...har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar

² Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017. – B. 33.

subvensiyadan chiqarishni so‘zsiz ta’minlash kerak»³ligi, shuningdek, «...mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur»⁴ligi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalarning ijobiy amalga oshirilishida mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun mahalliy byudjetlarning markaz byudjetiga qaramligini keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish va mahalliy byudjetlar mablag‘larini samarali boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishlarini ta’minlash muhim omil hisoblanadi. Bunda mahalliy byudjetlarning o‘z daromadlari bazasini kengaytirish, xarajat majburiyatlarini optimallashtirish asosida ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlarga o‘ziga xos ta’rif qonunchilikda ham mavjud. Masalan, 2013-yilgacha amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunida «mahalliy byudjet - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi»⁵, deb ta’rif berilgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyatini aniqlash maqsadida e’tiborga loyiq ishlar qilinib, ko‘plab ta’riflar ishlab chiqilgan. Mahalliy byudjetlarning mohiyatini o‘zida mujassam etuvchi yuqorida keltirilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qilish natijasida, fikrimizcha, mahalliy byudjetlarga xos bo‘lgan eng muhim xarakterli belgilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ulardan birinchisi, eng avvalo, tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilganidir.

Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyat organlarining o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu ularning ikkinchi muhim xarakterli belgisi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo‘ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlarini nazarda tutadi. Bu – mahalliy byudjetlarga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgi.

³ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 2017. – B. 9.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliisy-28-12-2018>.

⁵ Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan 2014-yildan o‘z kuchini yo‘qotgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq kerakki, mahalliy byudjetlarga xos yuqoridagi xarakterli belgilarning barchasi bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgan taqdirdagina ular mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud infratuzilmani muhim vazifalar bilan bog'liq chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi, asosan, mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Mahalliy byudjetdan maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va kommunal xo'jalik sohalariga mablag'lar sarflanadi. Mahalliy byudjetlarning asosiy vazifalari mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatini moliyalashtirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga pul mablag'larini

higa ta'sir ko'rsatishga; aholi bandligining oshishini ta'minlashga; hududiy xo'jalik kompleksining uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi soha va tarmoqlarga

Fikrimizcha, soliq turlari bo'yicha normativlarni byudjetlar o'rtasida belgilash bir xildagi yondashuv asosida, ajratma foizlari bir xil miqdorda respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlarning me'yordan oshib ketmagan holda amalga oshirilmog'i kerak. Biroq ajratmalar me'yordagi soliq xususiyatlari va tenglashtirish siyosatidan kelib chiqishi lozim. Shuningdek, keyingi yillar uchun mahalliy byudjetlar daromadlarini hisoblashda uning bazis yildagi (hisobot yili) hisoblangan, undirilgan, ortiqcha to'langan hamda byudjetga soliq qarzdorliklarining o'zgarishini (kamayishi/ko'payishi) hisobga olish lozim. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari joriy yilda hisoblangan soliq summalarini indekslash yo'li bilan prognozlashtirilishi, soliqsiz tushumlar vazirlik va idoralarning ma'lumotlariga ko'ra yoki o'rtacha oylik tushumlardan kelib chiqqan holda prognozlashtirilishi kerak.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirishda mahalliy Kengashlar vakolatlarini kengaytirish, jumladan, Kengashlar huzurida hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish nuqtai nazaridan mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini kengaytirish uchun hududlar zaxiralari va imkoniyatlarini ishga solish, shuningdek, tuman va shaharlarda sanoat hamda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan komissiyalarini shakllantirish lozim.

Muxtasar qilib aytganda, yuqorida bayon etgan taklif va tavsiyalarimiz mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirishga, ularni yuqori byudjetga qaramligini kamaytirishga, pirovardida esa hudularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.:" Iqtisod-moliya, 2007
3. A.Baҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budget daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
- 10.Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.". "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
- 11.Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари"." (2017).
- 12.Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари"." (2017).
- 13.Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
- 14.Ўроқов У Файбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016
- 15.Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбани оширишда инноватсия менежментни ривожлантириш/Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.
- 16.У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор.2020
- 17.У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳукуқий асослари.- Science and Education, 2023. T4, №5, 1550-1564
- 18.Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденсиялари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.

19. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.“." (2017).
21. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар.“." (2020).
22. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимига интегратсиялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроков, У. "Махаллий бюджетлар молиявий баркарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." Молия-кредит тизимининг иктисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
24. Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари.“. Молия” журнали. 2014.
25. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия. 2005.
26. Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
27. G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O ‘quv qo‘llanma. - Т.: Baktriapress, 2016